



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 02 | pp. 170-176 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INING MANFIY TAFOVUTINI QOPLASH TARTIBI VA TENDENSIYALARI (Surxondaryo viloyati korxonalari misolida)



Zikirov Zafarjon Izatullo o‘g‘li

Surxondaryo viloyati soliq boshqarmasi

Sho‘ba boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqola qo‘shilgan qiymat solig‘ining manfiy tafovutini qoplash tartibi va tendensiyalarining tahlillari Surxondaryo viloyati misolida yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘shilgan qiymat solig‘i, manfiy tafovut (salbiy farq), yuridik shaxslar, yashirin iqtisodiyot, kameral soliq tekshiruvi, xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar, davlat soliq xizmati, soliq siyosati, sayyor soliq tekshiruvi, soliq auditi, tadbirkorlik sub'ektlari.

ТЕНДЕНЦИИ И ПОРЯДОК ВОЗМЕЩЕНИЯ ОТРЕЦАТЕЛЬНОЙ РАЗНИЦЫ ПО НАЛОГУ НА ДОБАВЛЕННУЮ СТОИМОСТЬ (применительно к предприятиям Сурхандарьинской области)

Зикиров Зафарджон Изатулло ўғли

Налоговое управление Сурхандарьинской области

Руководитель филиала

Аннотация: в данной статье рассмотрены порядок и тенденции компенсации отрицательной разницы налога на добавленную стоимость на примере Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: налог на добавленную стоимость, отрицательная разница (отрицательная разница), юридические лица, скрытая экономика, камеральная налоговая проверка, хозяйствующие субъекты, государственная налоговая служба, налоговая политика, выездная налоговая проверка, налоговая проверка, субъекты хозяйствования.

PROCEDURE AND TENDENCIES OF COMPENSATION OF THE NEGATIVE DIFFERENCE OF THE VALUE ADDED TAX (in the case of Surkhandarya region enterprises)

Zikirov Zafarjon Izatullo o‘g‘li

Tax administration of Surkhandarya region

Head of the branch

Annotation: this article covers the procedures and trends of compensation of the negative difference of value-added tax on the example of Surkhandarya region.

Key words: value added tax, negative difference (negative difference), legal entities, hidden economy, camera tax audit, economic entities, state tax service, tax policy, mobile tax audit, tax audit, business entities.

KIRISH

Mamlakatda pul-kredit, valyuta, soliq va tashqi savdo siyosati sohalorida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish va investisiya muhitini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ekspertlarning baholashlari va tadbirkorlik sub'ektlari o‘rtasida o‘tkazilayotgan so‘rovlar iqtisodiyotdagi yashirin aylanmaning, ayniqsa, savdo va umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta'mirlash, turarjoy xizmatlarini ko‘rsatish kabi sohalarda yuqori darajada saqlanib qolayotganligidan dalolat beradi. Bu esa vijdonli tadbirkorlarning iqtisodiy manfaatlariga putur etkazmoqda, ular uchun teng bo‘lmagan biznes yuritish shartlarini yuzaga keltirmoqda. Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma'muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish, soliq organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, soliq siyosatiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Shu bois, ushbu yo‘nalishdagi ishlarni tartibga solish maqsadida mamlakatimizda ko‘plab qonun hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yilning 30 oktyabrdagi “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 6098-sonli Farmonining qabul qilinishi. Ushbu farmon bilan mamlakatimizdagi ko‘plab sohalardagi tartiblarga o‘zgartirishlar kiritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ya'ni, farmon bilan 2021 yil yanvaridan boshlab:

- 2022 yil 1 yanvargacha bo‘lgan muddatga umumiy ovqatlanish sohasidagi kichik tadbirkorlik sub'ektlarining bank kartalari va kontaktsiz to‘lovlardan foydalangan holda jismoniy shaxslardan olingan daromadlari umum belgilangan soliqlarni to‘lashga majburiy tartibda o‘tish maqsadida umumiy daromadga kiritilmasligi tartibi joriy etildi;

- xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarga korporativ bank kartalaridan foydalangan holda tovarlarni (xizmatlarni) shartnoma tuzmasdan sotib olish ruxsat berildi;

- davlat soliq xizmati organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq auditi tayinlanganligi to‘g‘risida xamda sayyor soliq tekshiruvlari o‘tkazish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilni xabardor qilgan holda amalga oshirilishi belgilandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bundan tashqari farmonning asosiy mohiyati yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilganligi bois, bu bo‘yicha maxsus komissiya xamda unga mos ravishda hududiy komissiyalar tashkil etildi. Shuningdek, farmon bilan soliq organlarining tarkibiy tuzilmasi tashkil etildi va davlat soliq qo‘mitasi tarkibida soliq nazorati departamenti tashkil etildi xamda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish, qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan bog‘liq firibgarlik sxemalarini

aniqlash va agressiv soliq rejalashtirishga qarshi kurashish departamentning asosiy vazifalari etib belgilandi. Bundan tashqari tarkibiy tuzilmada yangi "Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligi" bo'limi tashkil etildi. Ushbu bo'limning asosiy vazifasi etib, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarni ro'yxatga olish, ularga maxsus guvohnoma berish va qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha xosil bo'ladigan salbiy farq summasini qoplab berish belgilandi. Ushbu bo'limning tashkil etilishi va bo'limga yuqorida keltirib o'tilgan vazifalarni yuklatilganligi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 599-sonli Qonunining 5-moddasida belgilangan tartibni mamlakatimizda amalga oshirish asosiy dastak bo'lgan. Qonunda hisoblangan soliq summasidan hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining oshib ketishi natijasida hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasining o'rnini qoplash 2020 yil 1 iyuldan e'tiboran amalga oshirilishi belgilab berildi. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 272-moddasida agar hisoblab chiqarilgan, byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi salbiy bo'lsa ya'ni hisobga olingan summa hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'idan oshib ketisa, soliq to'lovchi mazkur summaning o'rnini qoplash huquqiga ega bo'lishi belgilab berildi. Mamlakatimizda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarishda byudjetga to'lanadigan soliq summasi 2020 yil 14 avgustga qadar faqatgina eksport faoliyati bilan shug'ullangan korxonalariga ya'ni nol darajali stavkani qo'llash natijasida hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi qaytarib berilgan. Ushbu tartib O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 7 aprelda 2775-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Nizom talablari asosida amalga oshirilgan.

NATIJARLAR

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 avgustda "Qo'shilgan qiymat solig'i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog'liq soliq ma'murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror O'RQ-599-sonli Qonunning ijrosini ta'minlashga qaratildi. Ya'ni qaror bilan endi nafaqat nol darajali stavkani qo'llash natijasida xosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha to'lovchi qaytarish balki belgilangan stavkani qo'llash natijasida xam xosil bo'ladigan manfiy tafovutni qaytarish tartibi belgilandi. Agar statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, AV-2775-sonli nizom talablari asosida 2018 yil davomida Surxondaryo viloyati soliq to'lovchisi hisoblangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga 7 ta holatda 13,1 mlrd.so'm, 2019 yilda 21 ta holatda 54,8 mlrd.so'm, 2020 yilda 15 ta holatda 18,5 mlrd.so'm "nol" darajali stavkani qo'llash natijasida hosil bo'lgan QQS ortiqcha to'lov summasi soliq to'lovchilarning bank hisobvarag'iga qaytarilgan.



1- rasm Surxondaryo viloyati bo‘yicha QQS manfiy tafovutini korxonalariga qaytarish tendensiyasi¹

2020 yil 14 avgustgi qaror bilan tasdiqlangan nizomda qo‘shilgan qiymat solig‘ining manfiy tafovuti-salbiy farq deb nomlangan. Ya'ni hisoblangan soliq summasidan hisobga olingan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining oshgan qismi salbiy farq hisoblanadi.

1-jadval

Surxondaryo viloyatida 2018-2023 yillar davomida korxonalariga qaytarilgan qo‘shilgan qiymat solig‘ining manfiy tafovuti to‘g‘risida MA'LUMOT²

2018-2023 y

mlrd.so‘m

T/R	Xudud nomi	2775- sonli Nizom talablari bo‘yicha		489- sonli Qarorga asosan		Jami		2018-2020 yillarda jami	2020-2023 yillarda jami	Baravar ortgan
		soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi			
1	2018	7	13,1			7	13,1	86,4	890,4	10,3
2	2019	21	54,8			21	54,8			
3	2020	15	18,5	406	189,8	421	208,3			
4	2021			1010	264,3	1010	264,3			
5	2022			528	187,9	528	187,9			
	2023			267	248,4	267	248,4			
Jami		3	86,4	2211	890,4	2254	976,8			

¹ Ma'lumotlar asosida tadqiqotchi ishlanmasi

² Ma'lumotlar asosida tadqiqotchi ishlanmasi

Nizom talablari barcha korxonalariga joriy etilishi bilan 2020 yilning o'zida 406 ta ariza bo'yicha 189,8 mlrd.so'm qaytarib berildi. 2021 yilda bu ko'rsatkich yanada oshdi va 1010 ta ariza bo'yicha 264.3 mlrd.so'm, 2022 yilda 528 ta ariza yuzasidan 187.9 mlrd.so'm, 2023 yilda 267 ta ariza yuzasidan 248.4 mlrd.so'm qaytari berilgan.

2-jadval

2022 yil yanvar-dekabr oylari davomida korxonalariga qaytarilgan qo'shilgan qiymat solig'ining manfiy tafovuti to'g'risida
MA'LUMOT

31.12.2022

T/R	Xudud nomi	Jami kelib tushgan murojaatlar		Shundan:			
				Ijobiy hal etilgan		Rad etilgan	
		soni	summasi	soni	summasi	soni	Summasi
1	Термиз ш.	184	57 558,3	32	11 516,9	152	46 041,4
2	Ангор	60	19 455,5	17	10 930,8	43	8 524,7
3	ОЛТИНСОЙ	56	4 678,5	18	874,5	38	3 804,0
4	Бойсун	34	15 544,5	5	5 772,0	29	9 772,5
5	Музрабод	89	16 993,2	17	6 002,9	72	10 990,3
6	Денов	240	36 462,5	69	11 381,4	171	25 081,1
7	Жарқўрғон	197	10 982,4	95	8 610,8	102	2 371,6
8	Қумқўрғон	195	40 094,4	83	28 276,6	112	11 817,8
9	Қизириқ	35	21 989,4	8	11 004,4	27	10 985,0
10	Сариосиё	107	54 730,7	35	26 258,9	72	28 471,8
11	Термиз т.	82	20 051,0	41	15 782,7	41	4 268,4
12	Шерабод	86	24 643,4	27	16 011,3	59	8 632,1
13	Шўрчи	74	12 451,3	20	6 725,1	54	5 726,2
14	Узун	71	20 898,1	23	15 474,5	48	5 423,6
15	Бандихон	80	21 728,7	38	13 282,4	42	8 446,3
Jami		1590	378 262,1	528	187 905,2	1062	190 356,9

Ko'rishimiz mumkinki, 2020 yilning 2 yarmidan boshlab korxonalariga juda ko'p miqdorda qo'shilgan qiymat solig'ining manfiy tafovutlari qaytarib berilmoqda. Bu o'z navbatida korxonalarining iqtisodiy axvoliga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Shu bilan birga kontragent korxonalar olididagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga va biznesini yanada rivojlantirishga turtki bo'ladi.

3-jadval

**2023 yil yanvar-dekabr oylari davomida korxonalar qaytarilgan qo‘shilgan
qiymat solig‘ining manfiy tafovuti to‘g‘risida**

MA'LUMOT

31.12.2023

T/ R	Xudud nomi	Jami kelib tushgan murojaatlar		Shundan:			
				Ijobiy hal etilgan		Rad etilgan	
		soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
1	Termiz sh.	157	55 251,0	52	27 079,2	105	28 171,8
2	Angor	59	187 783,4	19	109 325,3	40	78 458,1
3	Oltinsoy	20	9 961,6	4	3 356,0	16	6 605,6
4	Boysun	21	5 322,2	3	744,0	18	4 578,2
5	Muzrabod	52	28 131,9	10	6 503,0	42	21 628,9
6	Denov	140	63 917,9	57	26 555,8	83	37 362,0
7	Jarqo‘rg‘on	72	7 971,9	14	2 299,6	58	5 672,3
8	Qumqo‘rg‘on	46	12 668,9	11	5 110,8	35	7 558,1
9	Qiziriq	24	6 244,1	11	3 057,4	13	3 186,8
10	Sariosiyo	52	38 389,6	18	27 625,4	34	10 764,2
11	Termiz t.	45	14 839,5	16	2 898,4	29	11 941,0
12	Sherabod	45	27 506,5	18	16 932,2	27	10 574,3
13	Sho‘rchi	36	2 428,8	6	562,1	30	1 866,7
14	Uzun	60	17 654,6	17	9 146,9	43	8 507,7
15	Bandixon	61	10 607,6	11	7 209,0	50	3 398,6
Jami		890	488 679,6	267	248 405,2	623	240 274,41

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, albatta bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik sub'ektlariga yaratilayotgan imkoniyatlar va engilliklar beqiyos. Ushbu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanadigan korxonalar bo‘lgani kabi, qonunchilikka rioya qilmasdan soliq to‘lovlaridan bo‘yin tovlaydigan soliq to‘lovchilar xam faolyait yuritishadi. Shu sababli, qo‘shilgan qiymat solig‘i ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish va yashirin iqtisodiyotni tartibga solish xamda yashirin faoliyat yuritayotgan soliq to‘lovchilarni ertaroq aniqlash zarurligidan kelib chiqib, yildan yilga barcha tizimlarni raqamlashtirish ishlariga juda katta urg‘u berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Яширин иқтисодийотни қисқартириш ва солиқ органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2020 йил 30 октябрдаги ПФ-6098-сонли Фармони;

2. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ Кодекси;
3. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг солиқ кодексига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 2019 йил 30 декабрдаги ЎРҚ 599-сонли Қонуни;
4. Вазирлар Маҳкамасининг «Юридик шахслар, фаолиятини ваколатхона, филиал ёки доимий муассаса орқали амалга ошираётган чет эл юридик шахслари ва тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланувчи жисмоний шахслар тўғрисидаги маълумотларни йиғиш, қайта ишлаш ва сақлаш механизмларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2020 йил 4 сентябрдаги 539-сон қарори;
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Қўшилган қиймат солиғи ҳамда чет эл юридик шахслари билан боғлиқ солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 14 августдаги 489-сонли қарори;
6. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг солиқ кодексига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 2021 йил 29 декабрдаги ЎРҚ 741-сонли Қонуни;
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Солиқ тўловчиларни ҳисобга олишни янада такомиллаштириш ва қўшилган қиймат солиғининг ўрнини қоплаш тартибини соддалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2021 йил 22 сентябрдаги 595-сонли қарори;
8. Barro, R. Government spending and a simple model of endogenous growth, *Journal of Political Economy*, 1990, 98(5): 103-25, Barro R. Economic growth in a cross-section of countries, *Quarterly Journal of Economics*, 1991
9. Pongsiri, N. (2002). “Regulation and Public Private Partnership”, *The International Journal of Public Sector Management*, Vol. 15, (6), 487-495.
10. Buriachenko, A. & Filimoshkina I. (2018) Fiscal decentralization and financial capacity of the local government in Ukraine. *Finance of Ukraine*, 5, 56-68. URL: http://nbuv.gov.ua/UJRN/Fu_2018_5_6
11. P. Halmai, V. Vasary, Quality of public finances and economic growth, *Acta Universitatis Lodzianae, Folia Oeconomica* 241 (2010) 249-265
12. I. Bostan, Leveraging sustainability as budgetary resources through financial law instruments, *Analele Universităţii Constantin Brâncuşi din Târgu Jiu: Seria Economie* 1(1) (2016) 33-42.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

